XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

JOMBOY t., Mustaqillik maydoni, 1-uy, +998 66 475 2330, 140400

2025-yil 30-dekabr VII-21-129-7-94-K/25 Jomboy tumani

2026-yilda Jomboy tumani bo‘yicha suv resurslaridan hamda yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni va xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-24-191-7-0-K/25-sonli qaroriga hamda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445 va 452-moddalariga kiritilgan o‘zgartirishlarga asosan, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, Jomboy tumani Kengashining yigirma birinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni va xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-24-191-7-0-K/25-sonli qaroriga hamda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445 va 452-moddalariga kiritilgan o‘zgartirishlar ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Jomboy tumani soliq inspeksiyasining 2025-yil 3-dekabrdagi P-14065-sonli xati bilan tumanning 2026-yil uchun belgilangan mahalliy budjet prognozidan kelib chiqib, tuman bo‘yicha 2026-yilda suv resurslaridan va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining miqdorlariga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash bo‘yicha bergan takliflari inobatga olinsin.

3. 2026-yil uchun Jomboy tumani hududida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 1-ilovaga hamda yer qa’ridan foydalanilganlik uchun soliq bo‘yicha noruda qurilish materiallari uchun qat’iy belgilangan soliq stavkalariga oshiruvchi koeffitsiyentlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Jomboy tumani hokimning birinchi o‘rinbosari (Sh.Xasanov), tuman soliq inspeksiyasi (B.Baratov) bilan birgalikda mazkur qaror o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (A.Toshpulatov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Jomboy tuman Kengash raisi

NAZAROV XURSHID ARIPOVICH

Xalq deputatlari Jomboy tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-129-7-94-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Jomboy tumani hududida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga kamaytiruvchi va oshiruvchi koyeffitsiyentl

ming so‘mda

T/R	Tuman nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1.	Jomboy tumani	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20

Izox: (qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi).

Xalq deputatlari Jomboy tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-129-7-94-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalariga 2026-yil uchun qo'llaniladigan koeffitsientlar

ming so'mda

T/R	Tuman nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig'anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G'isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag'al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1.	Jomboy tumani	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00	1,30	1,30